

O`QUVCHILARNING FAOLLASHUVIDA QIZIQARLI UY VAZIFALARINING O`RNI

O`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshirishda uy vazifalarining ahamiyati katta. Ba`zan darsning muhim bosqichlaridan biri bo`lgan uy vazifalariga jiddiy e`timor berilmaydi. Umumta`lim maktablari uchun amaldagi ona tili darslari deyarli birxil qolipda berilgan. Ya`ni mavzuni, grammatik qoidalarni mustahkamlovchi mashqlar, matn yaratish va badiiy asardan mavzuga oid gaplardan misollar keltirish... Bunday an`anaviylik o`quvchilarda uy vazifalariga bo`lgan e`tiborni, mas`uliyatni susaytiradi, demakki, fanga bo`lgan qiziqish ham pasayadi. O`qituvchi bu masalaga ijodiy yondoshib, o`quvchilar ijodiy salohiyatiga turtki bo`ladigan, ularni mantiqiy fikrlashga turtki beradigan, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga asos bo`ladigan uy vazifalari, topshiriqlarini tayyorlab kelishi zarur. Bu topshiriqlar ma`lum grammatik mavzu asosida yoki ijodiy topshiriq bo`lishi mumkin. Muhimi vazifa noan`anaviy shaklda bo`lib, o`quvchilar bu topshiriqlarni sidqidildan qiziqib bajarishadi. Kelgusi darsda esa rang-barang ijod namunalarini o`qishga oshiqadi, darsga bo`lgan qiziqishi oshadi, dars samaradorligi ta`minlanadi.

Tajrimamizda sinalgan ana shunday uy vazifalaridan namunalar keltiramiz. Ular o`qituvchi yordami bilan o`quvchilar tomonidan bajarilgan.

“Fikrni davom ettiring” topshirig`i

Bu topshiriqda o`quvchilarga ma`lum fikr berilib, uni mantiqan davom ettirish topshiriladi.
Masalan:

- * Ilmda cho`qqi yo`q, ammo...
 - Ammo g`alaba bor, donolik bor.
 - Ilmda cho`qqi yo`q. Inson umrida boqiylik.
 - Ilmda cho`qqi yo`q, ammo uning nurli manzillariga intilish naqadar yoqimli.
- * Yuz bemani kitib mutolasidan, bir nodonning suhbatini afzal, zero...
 - Nodon insonning so`zidan ham dono fikr izlamoq, insonning fahmli ekanligidan dalolatdir.
- * Kitob o`qimagan kimsa...
 - Ilm bog`ining musofiridir. Jaholat tikani, Baxtning “Nodon” o`g`lidir.
- * Kitob o`qimagan kimsa....
 - Devor kovagida yashaydigan tasqara kaltakesak yanglig` ayanchlidir. Zero kaltakesak kunduzi oftob nuridan yashirinib ,zulmatni kutib, kech kirgach o`lja kutib tong ottiradi.
- * Donishmanddan so`rashibdi : Dono va Nodonning o`rtasida qanday farq bor deb...(o`quvchilar davom ettirishadi)

-Dono ilm o`rgatar,	- Dono bilim
Nodon qiliq ko`rsatar.	Nodon zulm.
- Dono poklik belgisi,	- Dono olam kezuvchi,
Nodon yotlik belgisi.	Nodon dilni kesuvchi.
- * Odamlar qiziq-a...
 - Olmaning tagiga anor tushadi deb, umid qilishadi.
 - Tinch turgan ariqni loyqalatishadi, ammo uni tindirishni hayollariga ham keltirishmaydi.
 - Bozorda pastga urib olgan narsasini, uyga borib maqtab-maqtab yeyishadi.
 - G`iybat gunoh deyishadiyu, uning eshigidan bot-bot mo`ralashadi.
- * Dengiz qanchalik to`lib-toshmasin, daryo suviga muhtoj...
 - O`quvchi qanchalik zehnli bo`lmasin, ustoz tarbiyasiga tashna.
- * Falakning gardishi teskari aylanib, bir gulning urug`i cho`lga tushib qoldi. U qiyinchilik bilan qad ko`tardi...
 - Qum barxanlari issig`iga chidadi, uning ildizi suv qidirib toliqdi. U tundagi izg`iringa chidadi, bo`yin egdi, lekin sinmadi. Tunda osmon to`la yulduzlarga qarab ilinj gulxanini yoqdi. Bu tunni ham tongga yetkazdi. Shu topda u juda chanqadi. Ildizlari suv qidira-qidira holdan toydi. Bir vaqt olisdan karvon qo`ng`irog`i yangradi. Baxtini qarangki, karvon shu yerda to`xtadi. U insonlardan najot kutdi. Bir tomchi suv uchun... Lekin shu mahal yemishi tugagan tuya uni yantoq deb o`ylab yeb qo`ydi. Bu gul urug`i bu yerga qanday kelib qolgan, deb o`ylarsiz. Taqdirning telba shamollari balki uni shu yerga mahkum etgandir. Nima bo`lganda ham cho`l uning joyi emasdi.

“Bir so`z ta`rif” topshirig`i

- * Umr - ko`rpachaga o`xshaydi, biroq kimgadir ko`proq, kimgadir kamroq to`shaladi.
- * Maqtanchoqlik – o`z asirini tubanlik sari yetaklovchi ko`rinmas soya.
- * Maqtanchoqlik – sigirga o`xshaydi. Lekin uni doimo emas, ma`raganda oziqlantirmoq lozim.

* Qoshiq – ko`chmanchi qabilaning bosh vaziri.
* Eshik – qalblarning qasrida jamiyki ezguliklar ya’ni orzu, umid, quvonch, sofdillik va saxiylikning ushalguvchi ro’yobidir.
* Eshik – manzil yaqinligini bildirib, qalblarga iliqlik hadya aylovchi mash’al.
* Tugma – libosning ikki yonini doimo birga qilishga urinuvchi sovchi.
* Tugma – inson tanasini ko`zdan pana qiluvchi sharm-hayo liboslarning kaliti. Shu bilan birga aytishimiz mumkin-ki, tugma libosning asiri. Bu shunday asirki, uning ikki oyog`i-yu, ikki qo`li igna deb atalmish jallod tomonidan ip zanjirlari orqali tang`ib bo`ylab tashlangan.

“So`z o`yini” topshirig`i

* 1.Taomlardan lazzatlisi qaynatma,
Qaynatmani me’yorsiz qaynatma.

2.Ba’zi vaqtlar arg’amchiga madad bo`lar qil,
Shunday ekan sen do`stingga doim yordam qil.

3.Bizni qishloqda bor bir qadimiy tut,
Sen axir insonsan ish boshini tut.

4.Bugun juda nurli bo`lib chiqqan edi kun,
Chunki bugun kun bilan fayzli edi kun.
Bulutlar ham to`zg`ib, ochilgandi ko`k,
Shunday nurli kunlar uchun uning yuzi ko`k.
Bu payt shamol birozgina olmoqchiydi dam,
Endi havo dimligidan qaytar edi dam.

* 1.Bir qiziq hangoma bo`lgandi burun,
Eshitib lol qolgandi og`iz-u burun.

2.Tikmoqchi bo`ldim bir kuni tugma,
Oyim dedi :”Ipni noto`g`ri tugma!”.

3.Bordir bir qush laqabi mayna,
Bu haqda bilmasang qilishar mayna.

4.Ortiga ham qaramay yugurardi To`xtasin,
Singlim dedi zorlanib.”Shoshmay tursin, to`xtasin!”

5. mazali mevalardan biri bu olma,
Ammo uni aslo beruxsat olma!

“Qofiyadosh topishmoqlar” topshirig`i

*1.**K** dan boshlansam har on,
Qornim to`la mis, liton.
N dan boshlansam agar,
Ulug` ne’matman har gal. (kon, non)

2.**L** dan boshlansam agar,
Xumcha qilar kulollar.
M dan boshlansam agar,
Avtomobilga orom. (loy, moy)

3. **Q** dan boshlansam agar,
“Oh, qanchalar issiq,” derlar,.
U dan boshlansam agar,
Yigirma uch yigitlar
Olti singillar bilan
Bexavotir yashashar. (quyosh, undosh)

4. **Q** dan boshlansam har on,
O`zim oppoq unsimon.
A dan boshlansam har on,
Quti liq qizil marjon. (qor, anor)

*1.Ona tilida esga ol,
Meni derlar bo`lak...

Qattiq **X** dan kelsam gar,
Mendirman yuzdagi... (hol, xol)
2. **K** dan kelsam gar,
Topgin mendan zar.
N dan boshlansam agar,
Totliman xuddi asal. (kon, non)

3. Boshlansam **K** harfidan,
Men deb ko`rasan har on.
Boshlansam **S** harfidan,
Gapirasan sen har on. (ko`z, so`z)

4. Boshlansam **Y** dan
Otni sochidir.
Boshlansam **M** dan
Sutim totlidir. (yol, mol)

*1. **G** dan kelsam gar,
Men iforliman, qara.
K li bo`lib qolsam agar,
Bo`lib qolaman zarra. (gul, kul)

2. **T** dan kelsam,
Yemishdirman tovuqqa.
S dan kelsam,
Rang, nurdirman quyoshga. (tariq, sariq)

3. **Q** harfdan kelsam,
Men joning bo`lsam.
S harfli bo`lsam,
Uqgin men ham. (qon, son)

4. **O`** harflidirman
Xayoling menman.
U harfidanman
Turar joyingman. (o`y, uy)
5. Boshlansam **T** dan,
Qon o`tar mendan.
Boshlansam **P** dan,
Men tog`lardanman. (tomir, Pomir)

“Alifbo topishmoq” topshirig`i

A dan boshlansam agar shirin, totli ne`matman. (asal)
B dan boshlansam agar sitruslarda qimmatman. (banan)
D dan boshlansam agar suvda insonlar do`sti. (delfin)
E dan boshlansam agar soqolli bir jonzotman. (echki)
F dan boshlansam agar kuch-qudratda polvonman. (fil)
G dan boshlansam agar qizlar ko`ngliga yorman. (gul)
H dan boshlansam agar gerbimizda tayyorman. (humo)
I dan boshlansam agar insonlarga qo`riqchi. (it)
J dan boshlansam agar polaponman men jajji. (jo`ja)
K dan boshlanganman-u bir kungina yashayman. (kapalak)
L dan boshlansam agar bahorni qarshilayman. (lola)
M dan boshlansam agar baroqvoy bir hayvonman. (mushuk)
N dan boshlansam agar eng muqaddas ne`matman. (non)
O dan boshlansam agar temirga juda boyman. (olma)
P dan boshlansam agar o`zbekning boyligiman. (paxta)
Q dan boshlansam agar bo`ridan ho`p qo`rqaman. (quyon)
R dan boshlansam agar koinotda uchaman. (raketa)
S dan boshlansam agar samolarni quchaman. (samalyot)
T dan boshlansam agar tovuqqa juda o`chman. (tulki)
U dan boshlansam agar tunda poyloqchi qushman. (ukki)
V dan boshlansam agar barchaga aziz maskan. (vatan)
X dan boshlansa agar qichqiradi tong-sahar. (xo`roz)
Y dan boshlansam agar mushuklar avlodiman. (yo`lbars)
Z dan boshlansam agar otlarning ajdodiman. (zebra)
O` dan boshlansam agar g`ozning eng yaqin do`sti. (o`rdak)

G` dan boshlansam agar suv ostining sayyohi. (g`avvos)
Sh dan boshlansam agar men hayvonlar podshohi. (sher)
Ch dan boshlansam agar piyolaga onaman. (choynak)
Bong, tong, zang so`zlarin bir bo`g`inda yozaman.
Yod oling ash`orimni
Alifbo tartibida.
Harflar ketma-ketligi
Esdan chiqmaydi sira.

“Raqamlar bo`ylab sayohat” topshirig`i

1.Birinchidan siz o`ylang,
Shoshmay bamaylihotir.
Sonlarni boshlab berib,
Gerdayib turadi “bir”
Shunday son bor aslida,
Hamma unga oshiqdir.
Bilib endi siz o`ylang,
Bu sonning nomidir “bir.”

2.”Ikki” degan son border,
U ikkichiga yordir.
Dars qilmasang albatta,
Ikki baho tayyordir.

3.Har tong turib, to`plab kuch,
Mashq qiling bir, ikki, uch.
4.Puxta bilim egallang,
Bilim bo`lsa bir oz mo`rt.
Senga hech ikkilanmay
Qo`yishadi yaxshi “to`rt.”

5.Bu son bilan faqatgina,
Donolar do`st bo`ladi.
Ustoz aqllilarga shu bahoni qo`yadi.

6.Bu son kelishiklarning
Shakliga ham teng bo`lar.
Olti soni bahoda
Qiymati ham keng bo`lar.

7.Haftada bor 7 kun,
Mo`jizalar 7 ta.
Ta`lim borasida ham
Maktab yoshi 7 da.

8.Sayyoralar yig`ilib,
Qo`shilsalar quyoshga.
Bu sanoq son qaysidir?
Qay fikr keldi boshga.

9.Har fasl gali kelib,
Ketayotgan vaqtida.
9 oydan o`tgach yana
Uchrashasiz shu vaqtda.

10.Bu sanoq sonimiz-chi,
Kiyib olib yangi to`n.
Ikki xonali bo`lib,
Qarshimizda turar “o`n.”

“Ranglar falsafasi” topshirig`i

Oq rang – kelinlar libosi,
Qora rang – asr vabosi,
Ko`k esa – ko`ngil davosi,
Qizil-chi – qonimiz sadosi.

Sariq rang – quyoshning nuridir,
Moviy rang – osmonning gulidir,
Qizg`ish rang – kunning botishi,
Siyoh rang – tongning otishi.

Ko`k rang – tog` erur,
Yashil esa – bog` erur,
Oq rang – qor erur,
Qora rang – dor erur,
Qizil esa – yor erur.

Tog`lar haybati – ko`k rang,
Bog`lar chiroyi – yashil rang,
Yor muhabbati – qizil rang,
Dunyo asli shunday rang-barang,

Berilayotgan uyga vazifalar belgilangan mavzu doirasida yuqoridagi kabi erkin ijodiy yondashuvga qo`yib berilsa, o`quvchi darsni o`z vaqtida va o`z xohishiga ko`ra amalga oshiradi. Bilamizki, xohish bilan qilingan ish bilan xohishsiz qilingan ish o`rtasida anchagina katta farq bor. Darsga yangi nigoh bilan boqish esa ta`limning sifatiga hissa qo`shmay qo`ymaydi. Ana shundagina bugunki ta`lim kelajak uchun poydevor bo`lib xizmat qiladi.

Dono Usmonova,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san`at
akademik litseyining ona tili va adabiyot o`qituvchisi
(tel: +99893 563-49-84)

.